

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK ASOSIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB YO‘NALISHLARI

Eminjonov Asrorbek Abduvohid o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17063099>

Annotatsiya. Mazkur maqolada “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘llari yoritilgan. Yashil texnologiyalar, ekologik toza ishlab chiqarish va resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: So‘nggi yillarda iqtisodiy taraqqiyotning barqaror va ekologik xavfsiz shakllari jahon hamjamiyatining asosiy e‘tibor markaziga aylangan. Xususan, “yashil iqtisodiyot” tushunchasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘nalishda ekologik barqarorlik, uglerod izini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik muvozanatni saqlagan holda iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlovchi tizimdir. Jahon banki va BMT atrof-muhit dasturi tomonidan berilgan ta‘rifga ko‘ra, yashil iqtisodiyot inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshirishga xizmat qilib, ekologik xatarlarni kamaytiradi.

Kichik biznes subyektlari uchun yashil texnologiyalarni joriy etish bir nechta afzalliklarni taqdim etadi:

- Energiya sarfini kamaytirish orqali xarajatlarni optimallashtirish;
- Ekologik mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortishi;
- Davlat tomonidan berilayotgan grant va imtiyozlardan foydalanish imkoniyati.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqarishga ekologik toza texnologiyalarni jalb etish orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy mas‘uliyatni ham oshirishadi. Quyidagi formulada ekologik innovatsiyaning iqtisodiy samarasi ifodalangan:

$$E = (Y - X) / X \times 100\%$$

Bu yerda: E – samaradorlik foizi; Y – yangi texnologiyali daromad; X – eski texnologiyali daromad.

1-jadval.

Yashil iqtisodiyot tamoyillarining asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalishlar	Mazmuni
Energiya tejamkorlik	Kam energiya sarfi bilan mahsulot ishlab chiqarish
Qayta tiklanuvchi energiya	Quyosh, shamol va biogaz manbalaridan foydalanish
Atrof-muhitni muhofaza	Ekologik zararli texnologiyalardan voz kechish
Chiqindilarni qayta ishlash	Iqtisodiy aylanish tizimi asosida ishlab chiqarish

Xulosa va takliflar. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda joriy etish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- Mahsulot tannarxi pasayadi;
- Tabiiy resurslardan oqilona foydalaniladi;
- Yashil bandlik yaratiladi;
- Ekologik xavfsizlik ta’minlanadi.
- Yashil texnologiyalarni joriy qiluvchi kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlari berilishi;
- Davlat tomonidan “yashil kreditlar” tizimini yo‘lga qo‘yish;
- Ekologik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi grant dasturlarini kengaytirish lozim.

Adabiyotlar:

1. UNDP (2023). Green Economy Policy Guide.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4422-sonli qarori, 2019-yil.
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008.
4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2024).
5. www.greenbiz.com.